

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

BUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI

“TASDIQLAYMAN”

Budjet hisobi va davlat
jamg‘armalari fakulteti
dekani _____ Sh.Allayarov
“ ” _____ 2014-yil

“G‘AZNACHILIK ISHI” KAFEDRASI

ISKANDAROVA NAFISA ERKIN QIZI

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
MAXALLIY BUDJETLARNISAMARALI BOSHQARISH
MASALALARI”**

5341700 -“G‘aznachilik ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“G‘aznachilik ishi” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. A.Botirov

“ ” _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:

_____ dots.G.Qosimova

“ ” _____ 2014 y.

TOSHKENT - 2014

Men, Iskandarova Nafisa Erkin qizi, ushbu BMIni mustaqil bajardim, ko‘chirmachilik holati yo‘qligiga javob beraman. Ko‘chirmachilikka yo‘l qo‘ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug‘i bilan bekor qilinishi va “qoniqarsiz” baho qo‘yilishini bilaman.

Iskandarova Nafisa Erkin qizi _____

M U N D A R I J A		betlar
KIRISH		3-6
I BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISH	7-20
1.1.	Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	7-13
1.2.	Mahalliy budjetlarning asosiy vazifalari	13-17
1.3.	Mahalliy budjetni boshqarishning me’yoriy-huquqiy asoslari	17-20
II BOB.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLARNI SAMARALI BOSHQARISH	21-45
2.1.	Mahalliy budjetni boshqarish organlarining huquq va majburiyatlari	21-27
2.2.	O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjet xarajatlarining tahlili	27-35
2.3.	Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish manbalari va usullari	36-45
III BOB.	IQTISODIYOTNI MODERNIZA- TSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLARNI SAMARALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	46-64
3.1.	Mahalliy budjetlarni boshqarishning xorijiy tajribalari	46-52
3.2.	G‘aznachilik tizimida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo‘nalishlari	52-56
3.3.	Mahalliy budjetlarni samarali boshqarishni yaxshilash yo‘llari	56-64
XULOSA		65-67

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Budget islohot-larining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda moliyaviy strategiyani shakllantirish dastlabki o'rin turadi. U davlat moliya tizimining istiqbolli maqsadlarini, uning joriy budget ehtiyojlari bilan, tashqi va ichki qarzlarning miqdori, davlatning to'lov qobiliyati bilan markaziy va mahalliy hokimiyatning barcha bo'g'inlarini javobgarlik darajasi, mahalliy budget vakolatlarini ular ixtiyoridagi mavjud resurslar, daromadlar va imkoniyatlar bilan bog'laydi.

Mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan kuchli ijtimoiy siyosat amalga oshirilganligi natijasida jamiyatda muayyan barqarorlik ta'minlanadi, mahalliy budgetlarda aholi daromadlari va ijtimoiy xizmat bilan ta'minlanganlik darajasida tafovutlar keskin oshib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. Mahalliy budget xarajatlari bilan ekologik jihatdan og'ir sharoit yuzaga kelgan hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlashuvining oldi olinadi.

"Inqiroz avjga chiqqan davrda davlatlarning iqtisodiyotga keng miqyosda aralashuvi birinchi navbatda bank-moliya tizimi likvidligini qo'llab-quvvatlashga, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlariga, ishlab chiqarishga, kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga kam e'tibor berilgani vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin".¹ Bunday sharoitda mahalliy budgetlar o'rtasida budget munosabatlarini boshqarish va budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilish dolzarb hisoblanadi.

"...Global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror

¹ Karimov I. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2009. 14 fevral

sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi»¹.

Budjet jarayonlarida mahalliy budjetlarning ishtiroki, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati, moliya va budjet siyosati masalalari, hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti hamda mahalliy budjetlar xarajatlarini moliyalashtirishni hal etish dolzarb masalalaridir. Mahalliy budjetlarning daromadlar va xarajatlar tarkibi ma'lum o'zgarishlarga duch keldi. Byudjet xarajatlarini minimal xarajatlar bilan maksimal samaraga erishish, tasdiqlangan budjet rejalari asosida mablag'larni ishlatishning maqsadli xususiyati, budjet mablag'larini miqdori va mahalliy budjetdan berilgan ajratmalardan foydalanishni hisobga olib borish kabi tamoyillar asosida moliyalashtiriladi.

O'zbekistonda budjet tizimini samarali boshqarish, g'aznachilikda turli darajadagi mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi sharoitda respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash sharoitida asosiy e'tiborni budjet jarayonlarini boshqarishni rivojlantirish, mahalliy budjetlar xarajatlarini rejalashtirishni yaxshilash, xorijiy tajribalar asosida respublikamizda budjet tizimini boshqarishning yangi uslubiyotini budjet amaliyotiga kiritish kabi muhim vazifalar aniqlangan.

Hozirgi sharoitda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati, budjet jarayoni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan ilmiy ishlar dolzarb hisoblanadi. Shu maqsadda bitiruv malakaviy ishimizga "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budjetlarni samarali boshqarish masalalari" mavzusi tanlandi.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni samarali boshqarishni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflar berishdan iborat.

¹Karimov I "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

Muallif tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

- ⇒ mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy va nazariy-tashkiliy asoslarini o'rganish;
- ⇒ O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarning huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish;
- ⇒ mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarining hozirgi holatini o'rganish;
- ⇒ turli darajadagi mahalliy o'rtasida budjetlararo munosabatlar mexanizmini o'rganish;
- ⇒ mahalliy budjetlarni rejalashtirish, nazorat va ijro qilish mexanizmining xorijiy tajribalarini o'rganish;
- ⇒ O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni samarali boshqarish bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Mahalliy budjetni tuzish va ijro qilish mexanizmi bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida mahalliy budjetlarni boshqarish jarayonlarini ilmiy o'rganish olingan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida asoslangan xulosa va takliflarni O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini moliyaviy rejalashtirish ishlarini takomillashtirish uslubiyotida qo'llash maqsadga muvofiq.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari, bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti, nazariy-amaliy ahamiyati hamda bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko'rsatilgan.

Birinchi "O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni boshqarishni tashkil etish" nomli birinchi bobda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda

mahalliy budjetlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan. Mahalliy budjetlarning asosiy vazifalari ko'rsatilgan. Mahalliy budjetlarni boshqarishni me'yoriy-huquqiy asoslari berilgan.

“O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjetlarni samarali boshqarish” nomli ikkinchi bobda mahalliy hokimiyat organlarining huquq va majburiyatlari o'rganilgan. O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjet xarajatlarining tahlili berilgan. Hududlarda mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish manbalari va usullari ko'rsatilgan.

“Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budjetlarni samarali boshqarishni takomillashtirish» deb nomlangan yakuniy bobda mahalliy budjetlarni boshqarishning xorijiy tajribalari berilgan. G'aznachilik sharoitida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Mahalliy budjetlarni samarali boshqarishni yaxshilash yo'llari aniqlangan.

I BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISH

1.1.Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga davlat aralashuvining asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o‘tish, chet el yutuqlaridan foydalanish asosida barcha hududlarda aholining turmush darajasini ko‘tarishdan iborat. Respublikamizda “...Ijtimoiy sohaga qaratilayotgan e’tibor sifatida davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qolgani va u umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etgan»¹.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘rishni ta’minlash ko‘p jihatdan hududlarning rivojlanish darajasi va o‘rish sur’atlariga bog‘liq. Hududlarning mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi makroiqtisodiy barqarorlik, milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlashning asosi hisoblanadi. Chunki barqaror iqtisodiy o‘rishni ta’minlash, avvalambor, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga, ularning mutanosib va kompleks rivojlantirish darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishda mintaqalararo tafovutlarni kamaytirish, mintaqalarning tabiiy

¹Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘rish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzası. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

iqtisodiy salohiyatidan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish, mahalliy budjetlarni mustahkamlash va barqarorligini ta'minlash, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish, ekologik sharoiti noqulay bo'lgan hududlarni qo'llab-quvvatlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan budjet tizimini milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirmoqda. O'zbekistonda budjet tizimini samarali boshqarish, turli darajadagi budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyin respublika va hududlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy iqtisodiyot – mamlakatning alohida hududi yoki alohida qismi bo'lib, tabiiy-iqlim sharoitlari bilan uzviy bog'langan, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, tashkiliy joylashgan, moslashtirilgan va ishlab chiqaruvchi kuchlar yig'indisidir. Hududiy iqtisodiyotning mazmun-mohiyati va xususiyati ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatni samarali ishlab chiqarishga ko'mak beradi. Ilmiy adabiyotlarda hudud viloyat, shahar, o'lka, voha, vodiya kabi ma'nolarda keng foydalaniladi. Hududiy iqtisodiyot ijtimoiy ishlab chiqarish, hududiy tashkil topish mexanizmidan iborat. Xorijiy adabiyotlarda hududiy iqtisodiyot xalq xo'jaligi sohalari, tarmoqlari va budjetlarni o'zaro aloqadorligining murakkab majmui sifatida ko'rsatiladi. «Hududiy iqtisodiyot» tushunchasi mahalliy miqyosda sodir bo'ladigan jarayonlarni, moliyaviy holatni va iqtisodiy hodisalarni tavsiflaydi. Hududiy iqtisodiyot har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining bo'linmas va uzviy bir bo'g'ini sifatida faoliyat yuritadi. Ma'muriy boshqaruvning an'anaviy kontseptsiyasi nuqtai nazaridan sodda va tushunarli bo'lgan qarashga ko'ra, hududiy iqtisodiyot – mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan bevosita nazorat qilinadigan barcha iqtisodiy jarayonlardan iborat.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida islohotlarning asosiy yuki hududiy birliklar va mahalliy boshqaruv organlari zimmasiga tushadi. Hududlarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar makroiqtisodiy siyosatning kichiklashtirilgan nusxasini anglatmaydi. Har bir hududiy birlik – bu o'ziga


xos ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy resurs tizimidir, hududning moliyaviy holati va iqtisodiy potentsiali mahalliy budjet xarajatlari hamda daromadlarida ko‘rinadi. Turli mamlakatlar yoki hududlar ishlab chiqarish omillari va rivojlanish shartlari uyg‘unligining har xilligi iqtisodiy rivojlanish darjasini bir xil nuqtai nazardan baholash imkonini bermaydi. Buning uchun bir qator asosiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

1. Hududiy yalpi ichki mahsulot.
2. Hududiy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi.
3. Aholi jon boshiga asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish.
4. Aholining turmush darajasi va bandlik.
5. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari.
6. Mahalliy budjetning daromad bazasi.
7. Mahalliy budjet xarajatlarining tarkibi.

Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- budjet moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo‘nalishlarini to‘la kamrab oladi;
- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejaga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Mahalliy budjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlanadi. Hududiy maqsadlarga mo‘ljallangan jamg‘armalarning shakllanishi yuz beradi, ya‘ni umumdavlat pul fondini bo‘lishning murakkab taqsimlanish jarayoni amalga oshiriladi.




1.1.1.-rasm. O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budjetlarining tuzilishi¹.

Tashqi tomondan barcha iqtisodiy va ijtimoiy bo‘linmalarga ajralgan ichki budjet jarayonidek ko‘rinadi. Haqiqatda esa, bu taqsimlanish ijtimoiy-munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi. Bu bosqichda hududdagi barcha sub’ektlarning manfatlari o‘zaro birlashadi.

Byudjet tizimi - iqtisodiy munosabatlar, davlat tuzilishi va qonun normalariga asoslangan davlat, ma’muriy-hududiy tuzilishi, budjet munosabatlarida mustaqil bo‘lgan budjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg‘armalari va fondlarining majmuidir. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan budjet tarkibidagi mahalliy budjet ko‘rsatkichlari hisobisiz mamlakat bo‘yicha moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas (1.1.1.-rasm).

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetini hamda respublikaga (Qoraqalpog‘iston) bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Viloyatning budjeti viloyat budjetini, viloyatga bo‘ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.



¹Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. –B.23.

1.1.2.-rasm. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilmasi¹.

Tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjetini va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. Quyidagi rasmda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tuzilmasini berilgan (1.1.2.-rasm). Turli darajadagi budjetlarning yaxlitligi tufayli respublika o‘z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg‘armasiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga birlashtirilgan barcha budjetlarning majmui tizimining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo‘yildi. Davlat budjeti quyidagi darajadagi budjetlardan iborat: O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti; Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari.

Byudjet tizimi birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yaxlitligini belgilab beradi. Byudjet tizimi butun respublika hududida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo‘naltiriladigan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi. Byudjet tizimi yaxlitligi budjetga doir rejalashtirish va prognozlashtirish uslubiyotini tashkil etish bir butunligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganlaridek, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqirozlarsiz hal etish mahalliy budjetlar daromad bazasining barqarorligini, shu jumladan ulardagi investitsion, soliq, valyuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va bu nisbatdoshlikda hududlarning iqtisodiy faolligi rag‘batlantirilishi lozim.

¹O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 34-modda. Davlat byudjeti tuzilmasi.

Hududlar bo'yicha soliq yukining o'zgarishi, YaIM, yalpi hududiy mahsulot, tovar (ish, xizmat)larning aylanma hajmi, investitsiyalarni jalb etish kabi bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi (1.1.1.-jadval). Jadvaldan ko'rinadiki, agar mamlakatimizda YaIMning o'sish sur'atlari 2000-2003 yillarda 3,8-4,2 foiz, 2007-2008 yillarda esa 9-9,1 foiz darajasida bo'lsa, keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur ko'rsatkichga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, o'sish sur'atlarida pasayish ro'y berdi.

1.1.1.-jadval.

O'zbekistonda YaIM ga nisbatan soliq yukining o'zgarishi¹. foizda

Yillar	2000	2008	2009	2010	2011	2012	2013
YaIM	103,8	109,0	108,1	108,5	108,3	108,2	108,0
Soliq yukining YaIM ga nisbatan o'zgarishi	27,9	23,2	22,5	22,0	21,9	21,5	20,5

Biroq, mamlakatimizda chuqur o'ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat natijasida shakllangan omillar shunday murakkab sharoitda ham 2012-2013 yillarda YaIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolindi. Soliqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va davlat manfaatlariga ta'siri, foyda va zarar bilan ishlaydigan korxonalar soni, investitsiyalar hajmi, soliq potentsiali darajasi, soliq tushumlari, soliqlar va yig'imlar bo'yicha boqimandalar, jami to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning korxona jami xarajatlaridagi ulushi kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Hududiy iqtisodiyotni boshqarishning hozirgi zamon amaliyoti, aynan, mahalliy soliq siyosati hamda soliq salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda

Mamlakat taraqqiyoti hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni taqozo etadi. Har qanday mamlakat iqtisodiyoti o'z navbatida uni tashkil etuvchi

¹O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

hududlar iqtisodiyotiga bevosita bog'liq. Shu bois, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlash hududlar iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlariga hamda boshqaruvchi sub'ektlar faoliyatiga bog'liq.

Hozirgi sharoitda islohotlarni amalga oshirishda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari, milliy modelimiz tamoyillariga asoslanish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida hududlarning ishlab chiqarish hajmi keskin pasayishining oldi olindi. Qisqa vaqt ichida iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida barqaror o'sish ta'minlandi. Iqtisodiy islohotlar va mahalliy budjetlarda tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish natijasida barcha viloyatlar va Toshkent shahrining iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli ijobiy tendentsiyalar kuzatildi. Ayniqsa, davlat tomonidan turli iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-ma'muriy usullar vositasida hududlar rivojlanishining tartibga solinishi, murakkab inqiroz sharoitida xavfsizlikni ta'minlash va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarning keskin ortib ketishining oldini olishga xizmat qildi.

1.2.Mahalliy budjetlarning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganlaridek, bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasi va kasanachilikni rivojlantirish nechog'liq katta, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga hojat yo'q. Bu avvalambor, aholi bandligi, uning ish haqi va daromadlarini oshirish, bu oxir-oqibatda respublikamiz hududlari, shahar va tumanlarimizdagi eng muhim ijtimoiy muammolarni echish demakdir.


Davlatning moliyaviy siyosati makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy

qismi bo'lib, uning mohiyati davlat va jamiyat oldiga qo'yilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qo'llaniladigan yuridik vositalar, iqtisodiy usullar, aniq yo'nalishlar bilan belgilanadi. Mavjud shart-sharoitlar aniq hisobga olingan holda, ulardan samarali foydalanishga e'tibor qaratiladi.

Budjet munosabatlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, u ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va mablag'lardan hududlar manfaatlari yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Budjetning taqsimlash funktsiyasi:

- budjet daromadlarining vujudga kelishini ta'minlaydi;
- budjet xarajatlariga olib keladi;
- nazorat – budjetga mablag'lar tushishi va mablag'lardan foydalanish yuzasidan nazorat olib borilishiga sharoit yaratadi.

Budjet munosabatlari- jamiyat iqtisodiy tizimining elementidir. Uning amal qilishi avvalo davlat va unga tegishli funktsiyalarni amalga oshirish uchun zaruriy moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun ob'ektiv zarurdir. Takror ishlab chiqarish jarayonida budjet munosabatlariga muvofiq keluvchi moddiy shakl ko'rinishini oladi.



1.2.1.-rasm. Mahalliy budjetlarning vazifalari¹

O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining har bir bo‘g‘ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan turli pul jamg‘armalarni tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Mahalliy budjetlar quyidagi vazifalarni bajaradi (1.2.1.-rasm). Mahalliy budjet mablag‘larning egasi sifatida amaldagi me‘yoriy hujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi budjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag‘larini ajratadi. Mahalliy budjet xarajatlariga mablag‘lar ajratish maxalliy hokimiyat organlari, davlat boshqaruv organlari ishtirokida, moliya, g‘aznachilik tizimi orqali moliya yilida sarf-xarajat qilgunga qadar bo‘lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi budjet siyosati va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta‘minlash asosidagi o‘ta mas‘uliyatli vazifalarning samarali boshqarilishini talab etadi. Ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko‘rsatish muhimdir. Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvi oldining olinishidir. Ikkinchidan, mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilash zarurligidir. Har ikki jihatning o‘zaro bog‘liq tarzda birgalikda olib borilishi hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o‘ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash uchun bir qator vazifalarni hal etish ayni vaqtda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan:

- yalpi hududiy mahsulotning o‘shishini oshirish, kichik biznes sub’ektlarining faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
- hududlarning o‘ziga xos shart-sharoiti va iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik rivojlantirish dasturlarini

¹ Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy byudjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. –B.26.

ishlab chiqish;

- hududlarni investitsion faolligini yanada oshirish;
- yangi ish o‘rinlarini yaratish asosida aholi bandligini ta’minlash;
- viloyatda turizm sohasini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyat va sharoitni e’tiborga olgan holda, mazkur xizmat sifatini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasida «...Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya’ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig‘i ta’lim, 14,5 foizdan ko‘prog‘i sog‘liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. 2013-yilda budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizdan kam bo‘lmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda. 2013-yilda ham Davlat budgetining ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig‘i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan»¹.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishda budget tizimida amalga oshirib kelinayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o‘rishini ta’minlash, investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, budget-moliya tizimini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Mahalliy budget iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta’minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan esa, bu xarajatlar hududdagi korxonalarning daromadidan tashkil topadi. Mahalliy budget daromadlari va xarajatlari chambarchas bog‘liq. Albatta, YaIMning pastroq darajasi, o‘z navbatida, ishlab

¹Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.

chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini, iqtisodiyotning kelgusi taraqqiyotini investitsiyalash imkoniyatlarining qisqarishini, ayniqsa, viloyatlar, shahar va tumanlardagi aholining kam ta'minlangan qatlamlarini iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy budjetlarda budjetlararo munosabatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- alohida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarish uchun javobgarlikni budjet tizimining budjetlari o'rtasida taqsimlash va huquqiy jihatdan biriktirishni;
- budjet tizimining har bir darajasiga biriktirilgan vakolatlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan xarajatlar hajmini belgilashni;
- budjetning barcha darajalarida daromadlar manbasini belgilash va huquqiy biriktirishni;
- hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barcha shakllarini.

1.3.Mahalliy budjetni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining budjet tizimini tashkil etgan budjetlarning butun majmuini yig'ma va alohida ajratilgan budjetlarga bo'lish mumkin. O'zbekistonda Davlat budjetining tarkibini va mahalliy budjetlarning asosini belgilagan birinchi hujjat – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat qurilishining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Tamoyillarning amalga oshirilishi respublika va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zgarishini shart qilib qo'ydi, ularning budjet fondlarini chekladi, mahalliy budjetlarni tenglashtirdi va budjetlararo munosabatlarni tabaqalashtirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, mahalliy hokimiyat organlari vazifalariga quyidagilar kiradi¹.

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2013. -40b. 100-modda.

- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ xujjatlarni qabul qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi qiyinchiliklar moliya-budjet tizimini isloh qilish jarayoni bilan to'g'ri keldi. Islohot dasturlarini amalga oshirish ushbu sohadagi qonunchilik faoliyatida hamda huquqiy faoliyat doirasida ham o'zgarishlarga olib keldi. Hozirgi sharoitda birinchi navbatdagi vazifalardan biri mahalliy budjetlar tizimini isloh qilish va budjet munosabatlarini, shuningdek budjet tuzilishi va budjet jarayonidagi muammolarni hal qilishning yangi uslubiyotini ishlab chiqish zarur bo'lib qoldi. Bu esa o'z navbatida, barcha darajadagi xokimiyat organlarining moliyaviy bazasini mustahkamlash zarurligi moliya, budjet va soliq tizimining milliy, huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning shakllantirish bilan tushuntiriladi.

Yuqorida qayd etilganlar ichida uchinchi badda belgilangan vazifa ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati jihatidan alohida ahamiyatga ega va mas'uliyatga moyil vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojlarini qoplashda eng muhim vosita va manba bo'lib hisoblanadi. Binobarin, mahalliy hokimiyatlarning zimmasiga vakolatidagi boshqa vazifalarni to'liq bajarish, ko'pincha moliyaviy resurslarning mavjud miqdoriga bevosita bog'liq. Ko'rsatilgan vazifa, huquq va majburiyatlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjetlarga o'z hududini iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlantirish mas'uliyati yuklangan. Amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy vakillik va ijro hokimiyatla-

rining hududlarini iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlantirishdagi muammolarni o'z vaqtida echishdagi rolini kuchaytirishni talab qiladi.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishining konstitutsiyaviy printsiptini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratildi¹.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish eng dolzarb vazifa qilib qo'yilgan ekan, bunda mahalliy o'z-o'zini boshqarish muhim o'rin tutadi. Mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirish bevosita ularning moliya-budjet huquqlarini oshirish, ularga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda etarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunida ta'kidlanishicha, mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish vakolati berilgan. Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining budjet jarayonlarini boshqarish sohasidagi faoliyatining huquqiy asosi o'rnatilgan. Mahalliy hokimiyat organlari budjet ijrosini tashkil qiladi, moliyaviy intizomga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunning (1993 yil 2 sentyabr) «Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asosi» deb nomlangan 11-moddasida ta'kidlanganidek, viloyat, tuman, shaharning moliyaviy resurslarini budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlar, aniq maqsadga qaratilgan fondlar, kredit resurslari, shuningdek, respublika

¹ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Norma maslahatchi, 2010 yil 16 noyabr.

budjetidan ajratilgan subventsia va dotatsiyalar tashkil etadi. Mazkur qonunda ko'rsatilishicha, viloyat, tuman, shahar budjetining daromadlari quyidagilardan iborat

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimlari tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulki, budjet mablag'lari, budjetdan tashqari fondlarning va aniq maqsadga qaratilgan fondlarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Mahalliy budjetning daromadlar tushumi mazkur qonunga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'langan soliqlar va soliqsiz to'lovlar asosida to'planadi. Viloyat, tuman, shahar budjetining daromadlariga quyidagilar kiritiladi: O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq olinadigan soliqlar va yig'imlar; viloyat, tuman va shaharga qarashli mol-mulkni ijaraga berish yoki sotishdan keladigan tushumlar; qonunlarda nazarda tutilgan hollarda viloyat, tuman, shahar mulki hisoblangan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni tekshirish vaqtida aniqlangan yashirib qolingani yoki kamaytirib ko'rsatilgan daromadlarning muayyan qismi; O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq boshqa tushumlar.

II BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BUDJETLARNI SAMARALI BOSHQARISH

2.1.Mahalliy budjetni boshqarish organlarining huquq va majburiyatlari

Iqtisodiy adabiyotlarda «moliya tizimi» tushunchasi davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi davlat va mahalliy hokimiyat organlari majmui sifatida qo‘llaniladi. Bu ma’noda moliya tizimi moliya organlari, g‘aznachilik organlari, bank-kredit muassasalari, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larini boshqaruvchilari, soliq xizmati organlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ularga davlat pul jamg‘armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli vakolatlar berildi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida mahalliy hokimiyatlar vakolatini kengaytirish asosida boshqaruv organlari faoliyatini isloh qilish islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatlarning vakolatini kengaytirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri –ularning budjet jarayonidagi vakolatlarini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Chunki, mahalliy budjet mablag‘lari xokimiyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalarida mahalliy hokimiyatlar rolini oshirib borishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Mahalliy budjet daromadlari mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi bo‘lib xizmat qiladi, xarajatlar esa mintaqaviy ehtiyojlarni ta’minlaydi. Mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari alohida mustaqil kategoriya

hisoblanadi, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mahalliy budjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy budjetlar Davlat budjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish mamlakat iqtisodiyotining rivojiga juda katta hissa qo'shish bilan bir qatorda xalqimiz farovonligining oshishiga yordam beradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning normativlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan normativlaridan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlar budjetlari aylanma kassa mablag'larining eng kam miqdorlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari qabul qilinganidan keyin belgilangan muddatda tuman va shahar hokimlarining qarorlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari tarkibiga kiradigan tumanlar va shaharlarning budjetlari qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarini, tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq ko'rib chiqadi va qabul qiladi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari, tumanlar va shaharlar budjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi

Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilaydi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "...Bugungi kunda global inqiroz keltirib chiqarayotgan chuqur jarayonlarni faqat eski vosita va printsiplarni tuzatish bilan hal etib bo'lmashligidan darak bermoqda va avvalombor, moliya va bank tizimining yangi tuzilmasini, uni nazorat qilish va tartibga solish mexanizmlarini ko'p tomonlama ishlab chiqishni taqozo etmoqda»¹.

Budjet xarajatlari sohasidagi huquqiy munosabatlarining ishtirokchilari huquqlarining belgilanligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlarda davlat manfaatlarini ifodalovchi, uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan budjet tashkilotlari, budjet mablag'lari oluvchilarga nisbatan nazorat o'tkazish usulida ish olib boriladi. Davlat va mahalliy hokimiyat organlari belgilangan tartibda budjet hisobidan moliyalashtiriladigan xarajat turlari, me'yorlari, moliyalashtirish ob'ektlarini belgilaydi, belgilangan talablar bajarilmaganda esa aybdorlarga nisbatan qat'iy choralar ko'radi.

Mahalliy xarajatlarni budjet mablag'lari hisobiga qoplash sohasidagi huquqiy munosabatning birinchi qatnashchisi, davlat manfaatlarini ifoda etuvchi va davlat nomidan mablag'larni beruvchi – moliya organidir. Budjet xarajatlarning ayrim turlarini belgilash, choraklar bo'yicha taqsimlash, o'zgartirishlarni amalga oshirish,

¹Karimov I "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2013 yil. 19 yanvar.

budjet mablag‘laridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ustidan nazorat olib borish moliya idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

Budjet orqali moliyaviy ta‘minlash yuzasidan munosabatlar ishtirokchilaridan biri – G‘aznachilik organlari budjetning kassa ijrosida va moliyaviy intizomga rioya etish yuzasidan nazoratni amalga oshirishda ishtirok etadi. "O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq G‘aznachilik hududiy boshqarmalarining zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyat budjetlari va Toshkent shahar budjetining kassa ijrosini amalga oshirish;
- tegishli budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishga qaratilgan hududiy g‘aznachilik hisobraqamlarini joriy etish orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlari mablag‘larini boshqarish;
- budjet tashkilotlarining tovar (ish, xizmat)lar etkazib beruvchilar bilan shartnomalarini, shuningdek, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kapital qurilish bo‘yicha buyurtmachilarning shartnomalarini majburiy ravishda ro‘yxatga olish va bunda shartnomalarning xarajatlar smetasida, qurilishlarning manzil va titul ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan summalar hamda maqsadlar doirasida bo‘lishini nazorat etish asosida budjet tashkilotlarining ma’lum maqsadlarga yo‘naltirilmagan, asoslanmagan xarajatlarining oldini olish;
- budjet tashkilotlarini, jumladan davlat ma’muriy idoralari moliyalashtirishga yo‘naltirilgan budjet mablag‘larining ishlatilishini optimallashtirish bo‘yicha monitoring olib borish;
- budjetdan mablag‘ oluvchilar nomidan va ularning topshirig‘iga binoan bevosita tovarlar etkazib beruvchilar hisobraqamlariga to‘lovlarni amalga oshirish orqali to‘lov tartibiga qat’iy rioya qilishni ta’sirchan nazorat etishni ta‘minlash;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budgetlari g‘azna ijrosining buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish, ularning bajarilishi bo‘yicha axborot to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish.

Mahalliy budget orqali moliyalashtirishning uchinchi ishtirokchisi budget mablag‘larini taqsimlovchi budget tashkiloti hisoblanadi. Budget tashkilotining rahbari tashkilot uchun ajratilgan budget mablag‘larini taqsimlaydi.

Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilar¹:

- budget buyurtmasini budget mablag‘larini taqsimlovchiga, budget mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga belgilangan tartibga muvofiq kiritadi;
- xarajatlar smetalarini tasdiqlaydi hamda ularni budget mablag‘larini taqsimlovchiga, budget mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga budgetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kiritadi;
- xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budgetdan ajratiladigan mablag‘larni mo‘ljallangan maqsadga muvofiq tasarruf etadi;
- budgetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) etkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzadi;
- xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlar kiritadi;
- tegishli davr uchun moliyaviy hisobotlarni budget mablag‘larini taqsimlovchiga, budget mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga taqdim etadi.
- shtat jadvallarini tasdiqlaydi va ularni budget mablag‘larini taqsimlovchiga, budget mablag‘larini taqsimlovchi bo‘lmaganda esa, tegishli hududiy moliya organiga budgetdan ajratiladigan mablag‘lar doirasida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kiritadi;

¹O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 32-modda. Budget tashkilotlarining va budget mablag‘lari oluvchilarning budget sohasidagi vakolatlari.

- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli hujjatlarni sudlarga, g'aznachilik bo'linmalariga o'z vaqtida taqdim etadi, shuningdek shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;
- budjet hisobini yuritadi va moliyaviy hisobotlarni tuzadi;
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantiradi va ulardan foydalanadi.
- budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar qonun hujjatlariga muvofiq budjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

2.1.1.-jadval.

Mahalliy soliqlar va yig'implarning 2014 yilga mo'ljallangan CHEGARAVIY STAVKALARI¹.

№	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari	Chegaraviy stavkalar
1.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	sof foydaning 8 foizi
2.	Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq:	
	transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi	1 litr uchun 265 so'm
	transport vositalari uchun gaz	1 kg uchun 180 so'm
3.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im:	
	alkogolli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari
4.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im	har oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 2099-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aytilishicha, O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi (2.1.1.-jadval). Mahalliy davlat hokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati soliq stavkalari va imtiyozlari sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, turli darajadagi budjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta‘minlash, o‘z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, budjet tashkilotlari moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, tegishli ma‘muriy-hududiy birlikda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlovchi tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirishni amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi.


2.2.O‘zbekiston Respublikasida mahalliy budjet xarajatlarining tahlili

Iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida budjet tizimini boshqarish quroli, mo‘ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larining asosiy manbai hisoblanadi. Byudjet iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari hal etishdagi salohiyatni belgilaydi. “Ijtimoiy sohaga qaratilayotgan e’tibor sifatida Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qolgan va u umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etgan»¹.

Davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini bajarishda budjet tizimini tashkil qilish hamda uning me‘yoriy-huquqiy bazasini yaratishdek muhim masala turdi. Jamiyatning ravnaqi, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta‘minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish, budjet daromadlari hamda xarajatlarini boshqarish va budjet siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

¹Karimov I. “ 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasini. \ Xalq so‘zi. 2014 yil. 18 yanvar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budjetining asosiy parametrlarini tasdiqlashga doir qaroriga muvofiq, qaror qabul qilingandan so‘ng bir haftalik muddatda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari daromadlari hamda xarajatlarining hajmlari qabul qilinadi.



2.2.1.-rasm. Mahalliy budjetning ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari¹.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan mahalliy budjet xarajatlari jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Davlat amalga oshirayotgan, aholining barcha qatlamlari manfaatlariga daxldor bo‘lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mahalliy budjet xarajatlarida namoyon bo‘ladi. (2.2.1.-rasm).

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi 2006-2013 yillarda Davlat budjeti xarajatlari tarkibida mahalliy budjet xarajatlari salmog‘ining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Jadval ma’lumotlari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, mahalliy budjet xarajatlarining Davlat budjetidagi salmog‘i 2006-2013 yillarda oshib borgan (2.2.1.-jadval).

¹Sirojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi: II. Darslik. –T.: «info SOMUZ» nashriyoti. 2010. – B.51.

Mahalliy budget xarajatlarning Davlat budgetidagi salmog'i 2006 yilda 2293638,0 mln. so'mga, 2013 yilda 14184858,0 mln. so'mga teng bo'lgan. 2006 yilda mahalliy budget xarajatlarning Davlat budgetiga nisbatan salmog'i 53,8 foiz bo'lsa, 2007 yilda bu ko'rsatkich 52,0 foizga tushgan, lekin 2008 yilda 55,5 foizga ko'tarilgan, 2009 yilda 57,1 foizni tashkil etgan, 2010 yilda 56,8 foizga teng, 2011 yilda 58,6 foizga ko'tarilgan, 2012 yilda 56,7 foizga tushgan, 2013 yilda mahalliy budget xarajatlari salmog'i 56,5 foizni ko'rsatgan.

2.2.1.-jadval.

Mahalliy budget xarajatlarining 2006–2013 yillardagi dinamikasi tahlili¹

(mln. so‘m)

Xarajatlar	Yillar															
	2006		2007		2008		2009		2010		2011		2012		2013	
	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%	mln. so‘m	%
Davlat budjeti	4263269	100	5334229	100	7453076	100	10913026	100	13732502	100	16178500	100	20614100	100	25104900	100
Respublika budjeti	1969630	46,2	2560429	48,0	3315911,8	44,5	4677738	42,9	5927779	43,2	6684442	41,4	8925045	43,3	10920042	43,5
Mahalliy budget	2293638	53,8	2773799	52,0	4137165	55,5	6235288	57,1	7804723	56,8	9494058	58,6	11689055	56,7	14184858	56,5

¹O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetidan quyidagi xarajatlar amalga oshiriladi:

- 1) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari;
- 2) iqtisodiyot xarajatlari;
- 3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo‘lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari;
- 4) mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesini; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, ularning boshqarmalari va bo‘limlarini saqlab turish xarajatlari;
- 5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg‘armalarini shakllantirish xarajatlari;
- 6) davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo‘yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining o‘rnini qoplash xarajatlari;
- 7) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari.

O‘zbekiston Respublikasida davlatning bosh islohotchi vazifasini zimmasiga olishi, budjet tashkilotlarini moliyaviy ta‘minlashi, qonun ustuvorligini ta‘minlashi, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kuchli ijtimoiy siyosat olib borishi kabi tamoyillar, ayniqsa, dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida o‘zining dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatdi.

Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi - asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo‘lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo‘yicha ko‘zda

tutilgan budjetdan ajratilgan mablag'lar aks ettiriladi. Xarajatlar moddasi - budjet tasnifining qismi bo'lib, Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tayinlanishi va to'lovlarni aniq turlarini ifodalaydi. Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash normativlar bo'yicha xarajatlarning quyidagi guruhlarini mablag' bilan ta'minlash usulida amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam, stipendiyalar va boshqalar); II. Ish haqiga qo'shimchalar; III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investitsiya dasturida nazarda tutilgan aniq ro'yxatlarga muvofiq); IV. Boshqa xarajatlar. Mazkur tartibga asosan xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari birinchi navbatda xarajatlarni moliyalashtirish va II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag' o'tkazmasdan IV guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi. Budjet tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar oldidagi kreditor qarzdorliklarni keskin kamaytirishga va keyinchalik umuman bartaraf qilishga imkon yaratdi. Budjet tashkilotlarining xarajatlarini moliyalashtirishning yangi Tartibi "Boshqa xarajatlar" IV guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanishini ko'zda tutdi: oziq-ovqat, dori-darmon; kommunal xizmatlar;boshqa xarajatlar.

Iqtisodiy xarajatlar tasnifi O'zbekiston Respublikasining barcha darajadagi budjetlari xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi. Davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib budjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab beradi. Davlat budjetining iqtisodiy xarajatlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi: toifa; modda va kichik modda; element. Budjet xarajatlarning tashkiliy tasnifi nafaqat vazirlik yoki idoralarni, balki, Davlat budjetidan mablag' oluvchi yoki budjet jarayonida ishtirok etuvchi barcha tashkilotlarni o'zida aks ettiradi. Hozirgi kunda budjetdan mablag' oluvchi tashkilotlar budjet tasnif bo'yicha taqsimlanayotgan mablag'larni ifodalaydi. Tashkiliy yo'nalishga ko'ra budjet xarajatlarini ijtimoiy to'plami

iqtisodiy yo‘nalish bo‘yicha davlat bajarayotgan funksiyalari - iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy himoya, mudofa va boshqalarni aks ettiradi.

Quyidagi jadvalda 2007-2013 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan (2.2.2.-jadval). Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mahalliy budjet xarajatlarining absolyut miqdori oshgan, 2010 yilda 7804723760,0 ming so‘m, 2011 yilda 9494058426,0 ming so‘m, 2012 yilda 11689055349,0 ming so‘m, 2013 yilda 14184858408,0 ming so‘mni tashkil etgan. 2013 yilda 2010 yilga nisbatan 1,8 barobar oshgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining jami xarajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy tadbir va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari 2007-2013 yillarda katta salmoqqa ega bo‘lgan.

Ijtimoiy-madaniy tadbir va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari 2010 yilda 87,6 foizni, 2011 yilda 87,8 foizni, 2012 yilda 88,5 foizni, tashkil etgan, lekin 2013 yilda 87,6 foizga tushgan. Jami mahalliy budjetlarning ijtimoiy-madaniy tadbir va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari tarkibida ta’lim va sog‘liqni saqlash xarajatlarining salmog‘i katta. Chunki umumta’lim va sog‘liqni saqlash muassalari mahalliy budjetdan moliyalashtiriladi. Ta’lim xarajatlari 2010 yilda 52,8 foizni tashkil etgan, 2011 yilda 54,4 foizga ko‘tarilgan, 2012 yilda 56,1 foizga ko‘tarilgan, lekin 2013 yilda 56,4 foizni ko‘rsatgan. Sog‘liqni saqlash xarajatlari 2010 yilda 19,9 foizni, 2011 yilda 21,1 foizni, 2012 yilda 21,7 foizni, tashkil etgan, lekin 2013 yilda 22,1 foizga tushgan. Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari tarkibida bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar xarajatlari 2010 yilda 13,4 foizni, 2011 yilda 10,8 foizni, 2012 yilda 10,2 foizni, tashkil etgan, lekin 2013 yilda 7,9 foizga tushgan.

Mahalliy budjetlarni shakllantirish masalalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lum bir hududning mahalliy xokimiyat organlari uchun davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishini ta’minlash masalalarini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida namoyon bo‘ladi.

2.2.2.-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ko'rsatkichlari.¹ (2010-2013 yillar)

	Ko'rsatkichlar	Yillar							
		2010		2011		2012		2013	
		miqdori	foizi	miqdori	foizi	miqdori	Foizi	miqdori	Foizi
	Xarajatlar jami	7804723760	100,0	9494058426	100,0	11689055349	100,0	14184858408	100,0
1.	Ijtimoiy-madaniy tadbir va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	6840087206	87,640	8338975347	87,834	10461489536	89,498	12486990598	88,030
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	279675646	3,583	329709104	3,473	408675626	3,496	562291174	3,964
3.	Markazlashgan investitsiya xarajatlari	295431000	3,785	380665300	4,010	278571410	2,383	381876500	2,692
4.	Davlat hokimiyati organlari	83557622	1,071	83466151	0,879	101662940	0,870	155078854	1,093
5.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash	118508237	1,518	152215640	1,603	191724345	1,640	287281190	2,025
6.	Zahira jamg'armasi	12683819	0,163	13318010	0,140	14011887	0,120	16988985	0,120
7.	Boshqa xarajatlar	174780230	2,239	195708874	2,061	232919605	1,993	294351107	2,075
	Mahalliy budjetlarga o'tkaziladigan daromadlar	689696300		22706938		53707995		56900108	
	Subventsiya jami	1371918761		2546508400		3153439200		3687427529	
	Jumladan								
	Markazlashgan investitsiyalar	133310900		-		-		-	
	Ish beruvchining ajratmalari	602437342		-		-		-	
	Xalq ta'limi muassasalarining ish haqi va YaIT	2049592064		2049592064		2582848961		3076054495	
	Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalaga nafaqalar	636170519		496916336		570590239		611373034	
	Dotatsiya	161104514		23140747		-		-	
	Aylanma kassa mablag'i me'yori	75057800		75057800		81888100		90077000	

¹ Mahalliy budjetlarning moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

O'zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag'lar izlab topildi. Davlat budjeti mablag'larning salmoqli qismi ijtimoiy – madaniy tadbirlarga, iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirildi, bu davlatning ijtimoiy funksiyasini bajarilishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, moliya yilida operatsiyalarni amalga oshiruvchi budget tashkilotlari uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan hisobotlarni topshirishning alohida muddatlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksga 175-2 modda va «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi»ga 184-1-moddasi orqali «Budget intizomini buzish» to'g'risidagi bandlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi» Kodeksining 175-2-moddasiga asosan, budget intizomini buzish, budget mablag'larini budgetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida ko'zda tutilmagan xarajatlarga yo'naltirish, shunday muassasalar va tashkilotlarda xarajatlar bo'yicha budgetdan ajratilgan mablag'larning limitlardan ortib ketishi, shtat-smeta intizomini buzish kabi xatti-harakatlarga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha jarima solish kabi ma'muriy chora ko'rish huquqi nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga berildi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Jinoiy Kodeksining 184-1-moddasiga asosan, budget intizomini buzish, budgetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan xarajatlarga yo'llash, shunday muassasalar va tashkilotlarda xarajatlar to'lash bo'yicha budgetdan ajratilgan mablag'larning limitlardan ortib ketishi, shtat-smeta intizomini buzish, shunday xolatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi. O'sha holat ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud

bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Ushbu holatlar juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Budjet intizomini buzish quyidagi holatlar hisoblanadi¹:

- Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;
- budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni etkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish.

Budjet amaliyotida quyidagilar smeta-shtat intizomini buzish hisoblanadi:

- noto'g'ri ma'lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko'rsatilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni smetaga kiritish;
- xodimlarning belgilab qo'yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o'rtasidagi o'zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik;
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etmaslik;
- tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik.

¹O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 3-modda. 187-modda. Byudjet intizomini buzish.

2.3. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish manbalari va usullari

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-moddasiga binoan soliq tizimi quyidagi tarkibga ega. Umumdavlat soliqlari; mahalliy soliqlar va yig'imlar. Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy budjetga o'tkaziladi. Yangi mahalliy soliqlar va yig'imlarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxqamasi bilan muvofiqlash-tiriladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi (2.3.1.-jadval).

2.3.1.-jadval.

O'zbekiston Respublikasida to'g'ri va egri soliqlar tarkibi¹.

To'g'ri soliqlar		Egri soliqlar	
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1.	Qo'shilgan qiymat solig'i
2.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2.	Aktsiz solig'i
3.	Er solig'i	3.	Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilgi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
4.	Mol-mulk solig'i	4.	Bojxona to'lovlari va boshqalar
5.	Er qaridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar		
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		
7.	Obodonlashtirish va ijtimoy infratuzilmani rivojlantirish solig'i		

Mamlakatimizda kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o'sish sur'tlarining ta'minlanishida izchil olib borilayotgan budjet-soliq siyosatining ahamiyati g'oyat yuksak. Buni o'z navbatida keyingi yillarda kuzatilayotgan budjet profitsiti, rejalashtirilgan davlat budjeti daromadlari ko'rsatkichlarining oshirib bajarilayotgani, Davlat budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi yanada rivojlantirilishi natijasida budjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanayotgani bilan izohlash mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami markazlashgan jamg'armalar tarkibida maqsadli jamg'armalarsiz

¹ O'zbekiston Respublikasining «Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonuni. 2007 yil. 25 dekabr.

davlat budjeti daromadlarining salmog'i 2013 yilda 69,4 foizni tashkil etdi. Davlat fiskal siyosatida maqsadli jamg'armalarsiz davlat budjeti markaziy o'ringa ega ekanini tasdiqlandi(2.3.2.-jadval).

2.3.2.-jadval.

Jamlanma budjet daromadlarining ijrosi¹.

mlrd.so'm

T\r	Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2013 yilga jamiga nisbatan foizda
1.	Maqsadli jamg'armalarsiz budjet daromadlari	16178,5	20614,1	25104,9	69,4
2.	Maqsadli jamg'armalar daromadlari	8113,4	10499,8	13571,9	32,7
3.	Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarining meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi daromadlari	184,5	210,0	227,5	0,5
4.	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi daromadlari	1905,7	4747,6	2618,5	6,3
	Jami daromadlar	26382,1	36071,5	41522,8	100,0

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda davlat maqsadli jamg'armalarning ham ahamiyat yuqori bo'lmoqda. Agar maqsadli fondlarsiz davlat budjetining daromadlari 2012 yilda 20614, 1 milliard so'mni

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, 2013 yilda bu ko'rsatkich 25104,9 milliard so'mni tashkil etgan. Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin (2.3.3.-jadval).

2.3.3.-jadval.

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarining ijrosi¹.

mlrd.so'm

T\r	Asosiy budjet ko'rsatkich Lari	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil reja	2014 yil yilga jamiga nisbatan Foizda
1	Maqsadli jamg'armalar siz budjet daromadlari	16178,5	20614,1	25104,9	30160,8	100,0
1.	To'g'ri soliqlar	4238,7	5196,4	6853,1	7790,4	23,3
2.	Egri soliqlar	8655,5	11187,8	13039,4	15618,2	51,8
3.	Resurs soliqlari	2313,5	2746,4	3755,5	4521,4	14,9
4.	Boshqa daromadlar	970,8	1483,5	1456,9	2230,8	10,0

Maqsadli fondlarsiz davlat budjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rinadiki, egri soliqlardan budjetga rejalashtirilgan tushum 2012 yilda 11187,8 milliard so'm bo'lsa, 2013 yilda 13039,4 milliard so'mni tashkil etgan (2.3.4.-jadval).. Uning jami budjet daromadlaridagi salmog'i 51,8 foizni tashkil etgan. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda egri soliqlarning fiskal ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Davlat budjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan xarajatlar ijrosining moddiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, davlat budjeti daromadlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

2.3.4.-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarida soliqlarning ulushi¹.
mlrd.so‘m

T\r	Ko‘rsatkich Lar	2012 yil	2013 yil	2014 yil reja	Byudjet daromad lariidagi salmog‘i foizda
	Davlat budjeti daromadlari	20614,1	25104,9	30160,8	100,0
1.	To‘g‘ri soliqlar	5196,4	6853,1	7790,4	25,8
2.	Egri soliqlar	11187,8	13039,4	15618,2	51,8
3.	Boshqa daromadlar	1233,5	1432,4	1842,4	6,1

Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlarining asosiy qismi soliqlar vositasida moliyalashtiriladi. Shu sababli har bir hududning o‘ziga xos iqtisodiy xolati va imkoniyatlarini e‘tiborga olgan holda, soliq mexanizmidan samarali foydalanish hozirgi sharoitda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Soliqlar – davlat budjeti yoki mahalliy budjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun majburiy to‘lovlardir. Shuning uchun respublika budjetining soliqlari ham salmoqli bo‘lishi shart.


Davlat hokimiyati va mahalliy davlat boshqaruvi organlarining barcha darajalardagi mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirish, mahalliy budjetlarning O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidagi ulushini ko‘paytirish maqsadida quyidagi umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar mahalliy budjetga tushadi²:

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 2099-son Qarori.

- yuridik shaxs bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkor)dan olinadigan qat’iy belgilangan soliq;
- respublikada ishlab chiqariladigan pivo va o‘simlik yog‘iga aktsiz solig‘i;
- davlat bojlari, yig‘imlar va jarimalar to‘liq hajmda mahalliy budjetlar daromadlariga o‘tkaziladi.



2.3.2.-rasm. Mahalliy budjetlar daromadlarining guruhlanishi¹

Quyidagi jadvalda 2007-2013 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida mahalliy budjet daromadlari salmog‘ining o‘zgarrishi ko‘rsatilgan(2.3.5.-jadval)..

¹ Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. –B.26.

2.3.5.-jadval.

Davlat budjeti daromadlarida mahalliy budjet daromadlarining ulushi
(2007-2013 yillar)¹

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Davlat budjeti	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Jumladan							
Respublika budjeti	54,6	56,0	54,0	52,2	57,2	58,9	58,4
Mahalliy budjetlar	45,4	44,0	46,0	47,8	42,8	41,1	41,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahalliy budjet daromadlarining Davlat budjetidagi salmog'i tushgan. Mahalliy budjet daromadlarining Davlat budjetidagi salmog'i 2007 yilda 45,4 foizga, 2010 yilda 47,9 foizga teng bo'lgan, 2008 yilda 44,0 foizga tushgan, 2009 yilda 46,0 foizga ko'tarilgan. Lekin keyingi yillarda 2011 yilda 42,8 foizga, 2012 yilda 41,1 foizga tushgan, 2013 yilda 41,6 foizga teng bo'lgan. Jadvaldan xulosa qilish mumkinki, Respublika budjeti daromadlarining Davlat budjeti daromadlaridagi ulushining pasayishi ijobiy holat hisoblanadi, mahalliy budjetlar daromadlar bazasining mustahkamlanishiga olib keladi. Davlat budjeti daromadlaridagi mahalliy budjetlar daromadlar ulushini oshirish muhim.

Quyidagi jadvalda 2010-2013 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjet daromadlarining ko'rsatkichlari ko'rsatilgan (2.3.6-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti tarkibida mahalliy budjet daromadlarining absolyut miqdori oshgan, 2010 yilda 5582004185,0 ming so'm, 2011 yilda 6900466420,0 ming so'm, 2012 yilda 8481908154,0 ming so'm, 2013 yilda 10440530771,0 ming so'mni tashkil etgan. 2013 yilda 2010 yilga nisbatan 1,8 barobar oshgan.

¹O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2.3.6.jadval.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy
budjetlar daromadlari.¹ (2010-2013 yillar)**

ming so‘m

	Daromadlar	Yillar							
		2010		2011		2012		2013	
		miqdori	foiz	miqdori	foiz	miqdori	foiz	miqdori	Foiz
1.	Yuridik shaxslardan foyda solig‘i	339512078	6,082	369263411	5,351	284969388	3,360	438946565	4,204
2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq	192752960	3,453	296576775	4,298	457202385	5,390	527232245	5,050
3.	Kichik korxonalar, mikrofirmalardan yagona soliq	247177880	4,428	230056925	3,334	338775989	3,994	487037802	4,665
4.	Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq	978384	17,527	1168602971	16,935	1521902392	17,943	1767021525	16,925
5.	Tad. shug‘. yuridik va jismoniy shaxslardan qat‘iy belgilangan soliq	139145700	2,493	187547100	2,718	218121200	2,572	342122100	3,277
6.	Qo‘shimcha qiymat solig‘i	1449234463	25,964	1835701837	26,603	2249328120	26,519	2294727470	21,979
7.	Aktsiz solig‘i	488177890	8,746	619637955	8,980	768053289	9,055	859450268	8,232
8.	Yuridik shaxslarga solinadigan mulk solig‘i	294742200	5,280	386107335	5,595	492186000	5,803	630789800	6,042
9.	Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i	59386	1,064	101194358	1,466	149765100	1,766	200595000	1,921
10.	Er solig‘i	208615300	3,737	250702073	3,633	322525900	3,803	377754700	3,618
11.	Yagona er solig‘i	95234800	1,706	96272727	1,395	123508900	1,456	268569400	2,572
12.	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	28715500	0,514	42152800	0,611	26258391	0,310	29238996	0,280
13.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	51165200	0,917	61580401	0,892	73126800	0,862	97763600	0,936
14.	Yuqori daromaddan olingan soliq	-	-	214200	0,003	-	-	-	-
15.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i	457591700	8,198	528575416	7,660	446363800	5,263	659895000	6,321
16.	Davlat boji	50220800	0,900	91158900	1,321	143229000	1,689	295710100	2,832

¹ Mahalliy byudjetlarning moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

17.	Musodora qil. tovar-moddiy qiymatni sotishdan va qo'yilgan jarimalar	45348400	0,812	66495300	0,964	93096700	1,098	170110300	1,629
18.	O'zbekiston Respublikasi IIB Yo'l xavfsizligi yig'imlar	-	-	943000	0,014	-	-	107701400	1,032
19.	Bozorlar daromadidan tushum	79422900	1,423	77615359	1,125	117991200	1,391	142127600	1,361
20.	Mahalliy yig'imlar	8883200	0,159	14216241	0,206	16362300	0,193	19659800	0,188
21.	Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni iste'mol qilinishiga jis. shax. soliq	315467900	5,652	419469956	6,079	555359200	6,548	582510400	5,579
22.	Boshqa tushumlar	52734500	0,945	56381380	0,817	83782100	0,988	141566700	1,358
	Daromadlar jami	5582004185	100,0	6900466420	100,0	8481908154	100,0	10440530771	100,0

2010 yilgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining jami daromadlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'idan tushgan tushumlar ulushining yuqoriligi saqlanib qolgan, umumiy mikdori 1449234463,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 25,9 foizni tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan tushgan tushumlar ikkinchi o'rinda turadi. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan tushgan tushumlar umumiy mikdori 978384,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 17,5 foizni ko'rsatgan. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan tushgan tushumlar uchinchi o'rinda turadi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan tushumlarning umumiy mikdori 457591700,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 8,2 foiz ekanligini ko'rsatgan.

2013 yilgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining jami daromadlari tarkibida qo'shilgan qiymat solig'idan tushgan tushumlar ulushining yuqoriligi saqlanib qolgan, umumiy mikdori 2294727470,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 21,9 foizni tashkil etgan. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan tushgan tushumlar ikkinchi o'rinda turadi. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqdan tushgan tushumlar umumiy mikdori 1767021525,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 16,9 foizni ko'rsatgan. Obodonlashtirish va

ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan tushgan tushumlar uchinchi o'rinda turadi. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'idan tushumlarning umumiy miqdori 659895000,0 ming so'mni tashkil etgan, uning ulushi 6,3 foiz ekanligini ko'rsatgan.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlaridagi mahalliy budjet daromadlarida soliqlarning ulushi ko'rsatilgan (2.3.7.-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti daromadlari tarkibida mahalliy budjet daromadlarining absolyut miqdori oshgan, 2011 yilda 3457393,1 mln so'm (ulushi 21,3), 2012 yilda 3966300,0 mln so'm (ulushi 19,2), 2013 yilda 5340000,0 mln ming so'm (ulushi 21,2), 2014 yilda 6641400,0 mln so'm (ulushi 22,0)ni tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlaridagi mahalliy budjet daromadlarida soliqlarning ulushi 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 1,9 barobar oshgan.

2014 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari tarkibida erqa'ridan foydalanganlik uchun solig'idan tushgan tushumlar ulushining yuqoriligi saqlanib qolgan, umumiy miqdori 2595800,0 mln. so'mni tashkil etgan, uning ulushi 8,6 foizni tashkil etgan. Mol-mulk solig'idan tushgan tushumlar salmog'i jihatidan ikkinchi o'rinda turadi. Mol-mulk solig'idan tushgan tushumlarning umumiy miqdori 1135000,0 mln. so'mni tashkil etgan, uning ulushi 3,5 foizni ko'rsatgan. Transport vositalariga benzin, dizel yokiilgi va gaz ishlatilishi uchun soliqlardan tushgan tushumlar salmog'i 2,8 foizni ko'rsatgan, tushumlarning umumiy miqdori 847100,0 mln. so'mga teng.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi davrda respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy budjet daromadlarini barqarorlashtirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak: shahar va qishloqlarda sanoatni, ayniqsa, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni ustuvor rivojlantirish; agroiqlim, suv va er resurslaridan oqilona foydalangan holda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash.

2.3.7.jadval.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlaridagi mahalliy
budjetlarda soliqlarning ulushi¹.**

mln.so'm

Asosiy budjet ko'rsatkich lari	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil reja	
	mln.so'm	%	mln.so'm	%	mln.so'm	%	mlnso'm	%
Davlat budjeti daromadlari maqsadli jamg'armalarsiz	16178563	100	20614100,0	100	25104900,0	100	30160800,0	100
Mahalliy budjet daromadlarida soliqlar	3457393,1	21,3	3966300,0	19,2	5340000,0	21,2	6641400,0	22,0
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	187547,1	1,1	218100,0	1,1	342100,0	1,3	505100,0	1,7
Obodonlashtirish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish solig'i	530632,6	3,5	446400,0	2,2	659900,0	2,6	767800,0	2,5
Transport vositalariga benzin, dizel yokilgi va gaz ishlatilishi uchun soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3	847100,0	2,8
Mol-mulk solig'i	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400,0	3,3	1135000,0	3,7
Er solig'i	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300,0	2,6	665200,0	2,2
Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1409715,0	8,7	1585300,0	7,7	2180100,0	8,7	2595800,0	8,6
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	61794,6	0,4	73100,0	0,5	97700,0	0,4	125400,0	0,4

¹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLARNI SAMARALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. Mahalliy budjetlarni boshqarishning xorijiy tajribalari

Xorijiy mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yigʻimlar hisobiga shakllantiriladi. Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirishga davlat mablagʻlarini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.

Unitar davlatlar budjet tizimi budjet resurslarini yuqori darajada markazlashtirish va mahalliy budjetlarning huquq va majburiyatlar darajasi kamligi bilan ajralib turadi. Federal tuzilishga ega davlatlarda esa budjet tizimi mahalliy budjetlarning nisbatan mustaqilligi va vakolat doirasining kengligi bilan ajralib turadi. Budjet tizimi bir necha darajalardan iborat boʻlishi mumkin, ushbu darajalar soni u yoki bu mamlakatning budjet tuzilishi bilan belgilanadi. Unitar davlatlarda – Frantsiya, Italiya, Yaponiya, Buyuk Britaniyada ikki darajali tizim, Federativ davlatlarda – uch darajali tizim mavjud – Rossiya, AQSh, Germaniya. Unitar davlatlarda alohida soliq turlari mos ravishda markaziy va mahalliy soliqqlarga boʻlinadi. Federativ davlatlarda (AQSh, Germaniya, Kanada) uch budjet pogʻonasiga mos ravishda uch pogʻonali – federal, hududiy, mahalliy soliqlar mavjud.

Jahon tajribasida daromadlarni turli darajadagi budjetlar oʻrtasida taqsimlash vakolatining asosan uch shakli keng qoʻllaniladi.

- soliq manbalarini budjetlararo taqsimlash va ulardan alohida foydalanish;
- federativ budjetda daromadlarning bir qismini taqsimlash;
- soliq solishda bir manbadan birgalikda foydalanish.

Turli davlatlarda har xil modellardan foydalaniladi. Germaniya modelida olingan soliq tushumlarining federativ budjet va mahalliy budjetlar oʻrtasida boʻlinishi ustunlikda ishlatiladi. Kanada va AQShda esa soliq tushumlarining boʻlinishi qoʻllaniladi. Masalan: mol-mulk soligʻidan Germaniya, Rossiya, Kanada va AQShda soliq toʻlovlaridan alohida foydalanish modeli asosida amalda ish

yuritiladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy qilishda Rossiya, Kanada va AQShda soliq manbalaridan birgalikda foydalanish modeli ishlatilsa, Germaniyada olingan soliq daromadlarining bo'linishi qo'llaniladi. Rossiyada budjet tizimining turli darajalari o'rtasida soliq vakolatlarini taqsimlanishining uch usuli rasman qo'llaniladi. Asosiy soliqlar bo'yicha tushumlar turli xil bo'g'indagi budjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

Xorijiy mamlakatlarda turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlashning ko'plab usullarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu usullar budjet avtonomiyasi darajasiga, ularni amaliyotga joriy etishning murakkablik darajasiga, shuningdek, hududlararo qayta taqsimoti darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha avvalo, budjetlararo munosabatlar sohasidagi islohotlarni baholash muhimdir. Budjetlararo munosabatlar mexanizmidagi budjet federalizmini rivojlantirishga e'tibor beriladi.

Xorijiy mamlakatlar, xususan Frantsiya budjet tizimida daromadlar yuridik shaxslar bo'yicha tasniflanadi. Solikli daromadlar – to'g'ri va egri soliqlar va soliqsiz daromadlarga bo'linadi. Budjet xarajatlari esa idoralar va boblar bo'yicha tasniflanadi. Frantsiyada xarajatlar tasnifi – Davlat qarzi, davlat va mahalliy xokimiyat organlari, davlat xizmati mablag'lari, iqtisodiy faoliyat, to'g'ri investitsiyalar va investitsiyalarga subsidiyalar kabilarga bo'linadi. Turli darajadagi budjetlar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash yuqori darajadagi budjet orqali amalga oshirilishi belgilangan. Shuni ta'kidlash lozimki, qayta taqsimlashning bunday mexanizmi ko'pchilik mamlakatlarda qo'llaniladi.

Xorijiy davlatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasining an'anaviy nazariyasida markaziy (federal) xukumatdan mahalliy xokimiyatlarga budjetlararo transfertlarni (hukumat grantlarni) qanday shaklda berilishi ko'rsatilgan. Byudjet transferti - budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'laridir. Markaziy (federal) hukumat budjetlararo transfertlarni (hukumat grantlarini) daromadlarni

taqsimlashda, daromadlar va xarajatlarni mahalliy hokimiyatlar o'rtasidagi proporsiyalarni taqsimlashda foydalanishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida budget tasnifi, Federal budget xarajatlarining tasniflanishi o'ziga xosdir. Ma'lumki, Rossiyada Federativ boshqaruv tizimi bo'lib, avtonom va mustaqil holdagi Respublikalar mavjud, ushbu tuzilmaga asosan, budget tasniflanishi ichida hududiy budget tasnifi ham kiritilgan. Ushbu tasnif har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy joylashuvidan kelib chiqqan holda tuzilishi ko'zda tutilgan. Munitsipal budgetlarda qo'llaniladigan bunday tasnif ko'rsatkichlari albatta Rossiya Federatsiyasining "Budget klassifikatsiyasi"da ham nazarda tutiladi. Rossiya Federatsiyasining budget tasnifi budget tizimining barcha darajalarida budgetni tuzish va ijro etishda foydalaniladi hamda barcha darajadagi budget ko'rsatkichlarini solishtirishga imkon yaratadi. Rossiya Federatsiyasi budget tizimining barcha darajadagi budget daromadlari, xarajatlari va budget defitsitini moliyalashtirish manbalari, davlat qarzlar va munitsipal aktivlarning guruhlovchi hisoblanadi. Budget Kodeksiga binoan «Rossiya Federatsiyasi budget tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Rossiya Federatsiyasi budget daromadlari tasnifi;
- Rossiya Federatsiyasi budget xarajatlarining funktsional tasnifi;
- Rossiya Federatsiyasi budget xarajatlarining iqtisodiy tasnifi;
- Rossiya Federatsiyasi budget xarajatlarining idoraviy tasnifi.
- Rossiya Federatsiyasi budget defitsitini moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari tasnifi;
- Rossiya Federatsiyasi tashqi va ichki qarzlar tasnifi¹.

Rossiya Federatsiyasi budget tasnifi barcha sub'eklar uchun yagona bo'lib, turli pog'onalardagi budgetlarni tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, ijro etishda ishlatiladi. Rossiya Federatsiyasi qonun chiqaruvchi hamda mahalliy o'z-o'zini


¹ Budgetniy kodeks Rossiyskoy Federatsii. 2008. 1 yanvar.

boshqarish organlari Rossiya Federatsiyasi budjet tasnifini tasdiqlashi va uni ob'ektlarini batafsillashtirishi mumkin.

Davlat moliyasi va davlat budjetiga oid iqtisodiy adabiyotlarda "budjetlashtirish" (budgeting) tushunchasi budjet loyihasini tayyorlash va uni ijro qilishning kompleks bosqichlari yig'indisi sifatida ishlatiladi. Budjetning turli xarajatlari o'z navbatida eng yuqori samarali usul bilan erishiladigan yakuniy natijalarga yo'naltiriladi va g'aznachilikda mamlakatdagi budjet ijrosining natijalari baholanadi. Budjetni «maqsadli-dasturli rejalashtirishning uslubi» yoki dasturlar bo'yicha budjetni rejalashtirishdir (rejalashtirish, dasturlash va moliyalashtirish tizimi – ***planning programming and budgeting system – PPBS***). «Maqsadli-dasturli rejalashtirishning uslubi» birinchi bo'lib AQShda qo'llanilgan.. Uslubning maqsadi – davlat moliyasi sohasida budjet protseduralarining samaradorligini oshirish uchun resurslarni taqsimlash bo'yicha qarorlarni qabul qilishni takomillashtirishdir. AQShdan keyin boshqa mamlakatlarda ham budjet ishlab chiqish jarayonida yanada samarali uslublardan foydalanish maqsadida «maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubi» («programno-tselevoy metod») yoki «natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish» uslubi qo'llaniladi. Xorijiy davlatlarda maqsadli-dasturli rejalashtirish uslubidan foydalanishda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- budjet xarajatlarini unumdorlik ko'rsatkichlariga bog'lash;
- tasdiqlangan budjet doirasida mablag'larni tasarruf etish;
- belgilangan maqsadlarga erishish usullarini tanlash erkinligi;
- hisoblash metodi bo'yicha xarajatlarni hisob-kitob qilish;
- budjet xarajatlarini dasturiy tasniflash bo'yicha rejalashtirish.
- o'rta muddatli moliyaviy rejalashtirishni kiritish.

Bizning fikrimizcha, hududlarda mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi quyidagi hisobotlarni amaliyotga taqdim etish mumkin. Faoliyatning asosiy natijalari to'g'risida taklif etilgan hisobotning asosiy ko'rsatkichlari rasmda berilgan (3.1.1.-rasm).



3.1.1.Faoliyatning asosiy natijalari to'g'risida hisobotning asosiy ko'rsatkichlari¹.

Keyingi yillarda o'rta muddatli budjetni rejalashtirishga o'tish xorijiy davlatlarda budjet islohotlarining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. O'rta muddatli budjet strategiyasiga o'tish quyidagi zaruriyat bilan belgilanadi:

- budjetni rejalashtirish va boshqarish tartibini takomillashtirish orqali investitsion xarajatlarni bo'lajak joriy xarajatlar bilan bog'lash imkoniyatlarini yaratilishi;
- bir yildan ortiq davrga mo'ljallangan davlat dasturlarini moliyalashtirish, amalga oshirish, dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan bog'lanishni talab etilishi;
- budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish;
- ichki va tashqi, investitsion resurslarning konsolidatsiyalanishi;
- budjet jarayoni rejalashtirilishi va ijrosining tiniqligini ta'minlanishi.

¹ Rasm taklif sifatida talaba tomonidan tayyorlandi.

O'zbekistonda 2005 yildan g'aznachilik tizimi joriy etildi, o'rta muddatli budjetni rejalashtirishga o'tish bo'yicha ishlar boshlandi, unda o'rta muddatli (3yillik) parametrlar doirasida Davlat budjetini prognozlashtirish nazarda tutiladi, dasturlashtirilgan budjetga o'tish rejalashtirildi. Xorijiy tajribalar asosida respublikamiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan islohotlar budjet tizimini boshqarish, budjet jarayoni bosqichlarini tartiblash, budjet loyixasini tuzish, budjetning kassali ijrosida g'aznachilik organlarining huquq va majburiyatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni amalga joriy etish ayni vaqtda budjetni kelajakka rejalashtirishga o'tishni ham nazarda tutadi. Nihoyat, budjetni rejalashtirish sub'ektlarining NYB tamoyillariga muvofiq shakllantirilgan budjetlari hisoblanadi. Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubi quyidagi vazifalarni echishga imkon beradi: aholi talablariga mos xizmatlarni taqdim etish; xarajatlarning nafaqat qiymatini, balki ijtimoiy samaradorligini aniqlash; budjet xarajatlarining asosiligi va tiniqligini oshirish; budjet tasnifi bo'yicha resurslarni xarajat turlari bo'yicha emas, strategik maqsadlar bo'yicha taqsimlash.


Budjet islohotining muhim yo'nalishlaridan biri - natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etishdir. NYB - moliyaviy resurslarni taqsimlash va foydalanishning tiniqligi, nazorat ostida bo'lishi va samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. «Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirish» deganda, cheklangan moliyaviy resurslar jamiyatda ko'zda tutilgan aniq maqsadga erishilishiga qarab hamda davlat budjet siyosatining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq taqsimlanadi.

Natijaviylikka yo'naltirilgan budjetlashtirishdan foydalanganimizda xarajatlarning alohida moddalari bo'yicha budjetning g'azna ijrosida maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni bajarishga o'tiladi. Dasturiy-maqsadli uslubda rejalashtirish uzoq muddatli baholash asosida, budjet xarajatlarini qismlarga ajratish esa – maqsadlar va dasturlardan kelib chiqib amalga oshiriladi”.

Dasturiy-maqсадli tamoyillar asosida tuzilgan budjetning muhim xususiyati shundaki, yakuniy natijalar, rejalashtirilgan tadbirlardan samara va ularning monitoringi budjetning o'zida belgilanadi. Bunda budjet faqatgina xarajatlar tasnifining "an'anaviy" (funktSIONal, iqtisodiy, idoraviy) turlari yordamidagina emas, balki aniq dasturlar bo'yicha ham ishlab chiqiladi. Dastur doirasidagi har bir tadbirga xarajatlar alohida ko'rsatiladi. Bundan tashqari, bevosita budjetda baholash mezonlarining mohiyati ko'rsatiladi.

3.2. G'aznachilik tizimida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yo'nalishlari

Budjet tizimida murakkab taqsimlash jarayoni sodir bo'ladi, mamlakat ma'muriy-hududiy bo'linmalarining barchasi ishtirok etib, ularning ayrimlari o'z mablag'larini berishsa, boshqalari esa budjet mexanizmi orqali bu mablag'larni oladi. Xududlarda budjetlarning yuqori va quyi bo'g'inlari o'rtasida budjetlararo munosabatlar shakllanadi (3.2.1.-rasm).




3.2.1.-rasm. Budjetlararo munosabatlarning tarkibiy elementlari¹.

Budjetni tartibga solish – bu turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlar manbasining qonun bilan birlashtirilgan tarzda taqsimlanishi, ya'ni davlat budjeti

¹Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -С-352.

daromadlarini taqsimlash tartibi. Hududiy budjetlarga minimal hajmda zarur daromadlar darajasini ta'minlash maqsadida hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yo'naltirilgan mablag'larni qayta taqsimlashdir. Budjetlararo munosabatlar tizimi davlat va hududlar o'rtasida daromadlar va xarajatlar vakolatlarini taqsimlash orqali barcha moliyaviy oqimlarni samarali tartibga solinishini ta'minlaydi. Budjetlararo munosabatlar asosida budjetning xarajatlari va daromadlari bo'yicha davlat hokimiyati bo'g'inlarining vakolat va ma'suliyatini taqsimlash masalasi turadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga doir cheklanishlarni belgilaydi. Bu esa amaldagi qonunlarga binoan budjet intizomini mustahkamlashga, budjet mablag'larini maqsadli tarzda, oqilona sarflashga ko'maklashadi. Budjet Kodeksida turli darajalardagi budjetlar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash mumkinligi, qayta taqsimlash usullari hamda qayta taqsimlashning amalga oshirish zarurligi mezonlari aytib o'tilgan(3.2.2.-rasm)..



3.2.2.-rasm.Budjetlararo transfertlar tizimi¹.

Budjet-soliq amaliyotida turli darajadagi budjetlar o'rtasida daromadlarni

¹Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarishda Budjet Kodeksining ahamiyati. \ Moliya. . -Toshkent. 2014. №1. –B.20.

taqsimlashning ko‘plab usullarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu usullar budjet darajasiga, budjetlararo munosabatlar mexanizmini amaliyotga joriy etishning murakkablik darajasiga, hududlararo qayta taqsimlash darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Davlat budjetining g‘azna ijrosi Davlat budjetining barcha daromadlarini Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritishdan, shuningdek Davlat budjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to‘lashdan iborat. Davlat budjetiga to‘lanadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritiladi, Respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, mahalliy budjetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlarida aks ettiriladi. Davlat budjetiga chet el valyutasida to‘lanadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, budjet tashkilotlarining chet el valyutasida tushadigan budjetdan tashqari mablag‘lari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo‘lmasa, g‘aznachilikning bankdagi valyuta hisobvaraqlariga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi ma’lum qildiki, 2012 yilning 1 yanvardan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi Yagona g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazildi. Respublika va mahalliy budjet daromadlari shuningdek davlat maqsadli va boshqa budjetdan tashqari fondlari daromadlari 2012 yil 1 yanvardan Markaziy bankning Toshkent shahar bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa Markazida ochilgan Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritiladi va xarajatlarni ushbu hisobvaraqdan to‘lab beriladi.

Budjet tizimining barcha xarajatlari turli budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi, mazkur xarajatlarning muayyan byujetga kiritilishini anglatadi. Birinchidan, moliyalashtiriladigan budjet tashkiloti yoki muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo‘lishi, ikkinchidan, moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidan kelib chiqadi.

Davlat budjetini tartibga solishda budjetlararo munosabatlar tizimining ahamiyati katta. Budjetlararo munosabatlar tizimi mahalliy o‘z-o‘zini

boshqarish organlarining hududlar soliq salohiyatidan samarali foydalanishni ragʻbatlantirish funksiyasini bajaradi. Ayni vaqtda, mahalliy oʻz-oʻzini boshqarish organlari vakolatlarining kengayishi asosida ularning moliyaviy bazasi hisoblanuvchi mahalliy budjetlar orqali ijtimoiy soha xarajatlarining asosiy qismi moliyalashtiriladi. Byudjet amaliyotida turli darajadagi mahalliy budjetlarning mustaqilligidan kelib chiqib, ularni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi, mintaqaviy daromadlar manbalari belgilanadi. Mahalliy byujetlar daromadlarini oʻz daromadlari yoki birlashtirilgan soliqlar va tartibga solinuvchi soliqlar hisobiga shakllantiriladi.

Gʻaznachilik vazifalari budjetning kassa ijrosi, daromadlar va xarajatlar yuzasidan nazorat, budjet mablagʻlarini boshqarish sohasidagi, shartnomalarni roʻyxatga olish va toʻlovlarni amalga oshirish hamda gʻazna ijrosi jarayonida budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish sohasidagi vazifalari boʻyicha turkumlanadi:

- budjetning kassa ijrosi, tushgan daromadlarni quyi budjetlar oʻrtasida taqsimlash;
- budjetdan mablagʻ oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosini taʼminlash;
- mahalliy budjet daromadlari va xarajatlari ijrosi toʻgʻrisida hisobot tuzish;
- budjet mablagʻlarini Yagona gʻaznachilik hisobvaragʻi, shuningdek, tegishli budjetlar daromadlari va xarajatlari oʻrtasidagi kassa uzilishlari oldini olishni taʼminlaydigan hududiy gʻaznachilik hisobvaraqlarini joriy etish orqali boshqarish¹.

Hozirgi sharoitda mamlakatimizda milliy budjet tizimini samarali boshqarish, turli darajadagi budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish, respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpogʻiston Respublikasi budjetiga va mahalliy budjetlarga Davlat budjetining tasdiqlangan chegara doirasida budjet

¹ Qosimova G.A., Shaakramov K. Mahalliy byudjetlar. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent. Moliya. 2012. 77 b.

subvensiyalari va budjet dotatsiyalari beriladi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:


- ◆ hududning o'z daromadlari bazasini hisobga olingan holdagi moliyaviy salohiyati;
- ◆ iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, demografik yo'nalishdagi davlat dasturlarining ijrosi;
- ◆ hududlarlar bo'yicha tovar va xizmatlarning bahosidagi farq;
- ◆ har bir hududda yashovchi aholi soni;
- ◆ hududda joylashgan korxona, budjet tashkilotlarining budjet mablag'lariga bo'lgan ehtiyoji;

Shu bilan birga, bu tadbirni amalga oshirishda mahalliy xududlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi, mehnat resurslari, ushbu hududning xom-ashyo bazasini o'zlashtirish darajalari e'tiborga olinishi kerak.

3.3.Mahalliy budjetlarni samarali boshqarishni yaxshilash yo'llari

Budjet qurilishining asoslari davlat tuzilishi shakllari bilan, mamlakatda qabul qilingan qonunchilik aktlari bilan, budjetning takror ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarda ta'siri bilan aniqlanadi. Budjet Kodeksi O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Moliya yiliga mo'ljallangan barcha darajadagi budjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ularning ijrosi hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi - so'mda amalga oshiriladi.



3.3.1.-rasm.O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjeti¹.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga quyidagilar kiradi: Davlat budjeti; davlat maqsadli jamg'armalarining budjetlari; O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Budjet jarayoni – budjet tizimi budjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosi ustidan nazorat qilish, budjet tizimi budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonidir. Budjet jarayoni ishtirokchilari – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilaridir.

Budjet tizimini shakllantirish zaruriyati O'zbekiston Respublikasi iktisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlanishining yangi darajasi bilan yuzaga kelgan. Respublikaning xalqaro maydonga chiqishi qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga moslashtirishni talab qildi. O'zbekiston Respublikasi

¹O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 46-modda. O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibi.

«Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunining qabul qilinishi bir necha sabablar bilan bog'langan. Birinchidan, 1992 yildan boshlab mamlakatda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi amal qilishni boshladi va davlat tuzilishiga muhim o'zgartirishlar kiritdi. Solik Kodeksining qabul qilinishi moliya, budjet va soliq tizimini shakllantirishga asos bo'ldi.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2013 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, "Soliq va budjet siyosatining 2014 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi, Senat tomonidan 2013 yil 12 dekabrda ma'qullandi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini 48-moddaning ikkinchi qismi quyidagi mazmundagi jumla bilan to'ldirildi: Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarning depozit hisobvaraqlariga o'tkazilganligi to'g'risidagi to'lov hujjatlarining ko'chirma nusxalari soliq to'lovchi tomonidan davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan taqdirda ham bajarilgan deb hisoblanadi.

Soliq kodeksi 301-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etiladi: transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lovchilar oxirgi iste'molchilarga: benzin va dizel yoqilg'isini realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar; gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobillarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobillarga yoqilg'i quyish va avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi; oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Mamlakatimizda bugungi kunga qadar tadbirkorlik sub'ektlari uchun etarli darajada imtiyozlar, prefentsiyalar va qulay imkoniyatlar yaratilgan bo'lsada, ammo ularga yanada qulayliklar yaratish orqali ushbu ishlar yanada takomillashtirilsa, kelajakda davlat siyosatini amalga oshirishda budjet daromadlarida soliq tushumlari oshishi uchun zaruriy omil yaratilgan bo'lib hisoblanadi.

Aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari faoliyatimizda hal qiluvchi o'rin egalladi. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda. "Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizidan ortig'i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov "...Eskicha boshqarish qoliplari va usullaridan qutula olmayotgan rahbarlardan qat'iy voz kechadigan vaqt keldi. Bugun hayotning o'zi korxona va birlashmalarni boshqarishda zamonaviy fikrlaydigan, puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan menejerlarga tayanishni talab etmoqda" – deya ta'kidlab o'tdi.

Respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

¹Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2014 yil. 18 yanvar.

PF-4434-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan Soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun korxonalarga qo'yilgan talablarga ham bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Masalan, avval mazkur korxonalarni ortiqcha ishchi kuchi bo'lgan mintaqalar hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, shuningdek Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida joylashtirish lozim edi. Endilikda esa, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari barcha hududlarda bunday korxonalarni tashkil etish mumkin.

Shuningdek, imtiyozdan foydalanish uchun avval korxonaning ustav kapitalida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etishi lozim edi, endi bu ko'rsatkich 33 foiz qilib belgilandi. Bundan tashqari, mazkur imtiyozlarni qo'llash muddati davomida imtiyozlardan olingan daromadni to'liq korxonani yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirish lozim edi, endi 50 foizi ushbu maqsadga, qolgan qism esa ixtiyoriy tasarruf etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-sonli Farmoniga muvofiq. to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari investitsiyalar hajmidan kelib chiqib, foyda solig'i, mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilish ko'rinishida soliq imtiyozlari berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Eskicha boshqarish qoliplari va usullaridan qutula olmayotgan rahbarlardan qat'iy voz kechadigan vaqt keldi. Bugun hayotning o'zi korxona va birlashmalarni boshqarishda zamonaviy fikrlaydigan, puxta tayyorgarlikka ega bo'lgan menejerlarga tayanishni talab etmoqda – deya ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimizda 2013 yilning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, hududlar soliq salohiyatini oshirish davlat budjeti

daromadlari barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun hududiy soliqlarning o'z vaqtida mahalliy budjetga kelib tushishi va undirilishida mavjud muammolarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hudud soliq salohiyati deganda, soliq qonunchiligining amal qilishi sharoitida tahlil etilayotgan davrdagi soliq, boj to'lovlarining ehtimol qilinadigan maksimal summasi shuningdek soliq va bojxona organlarining nazorat ishlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq to'lovlari summolari, ya'ni haqiqiy yig'ilgan soliqlar miqdori bilan budjet daromad-larini potentsial to'planishinig qobiliyati o'rtasidagi farqdir. Soliq salohiyati iqtisodiy tuzilma va uning soliqqa tortiladigan soliq bazasi orqali aniqlanadigan resurslar bilan ta'minlanganligi bilan xarakterlanadi. Mahalliy budjetlarning daromad kismi bazasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Hududning soliq salohiyatiga t'asir qiluvchi asosiy ichki va tashqi omillar mavjud (3.3.2.–rasm).

	Tashqi omillar	Ichki omillar
	Ijtimoiy siyosat. Budjet-soliq siyosati. Investitsiya siyosati. Inflyatsiya. Pul-kredit siyosati. Agrar siyosat.	Tabiiy iqlim shart-sharoitlari. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat. Resurs-xomashyo bazasi. Hududning mulkiy ahvoli. Iqtisodiyot tarmoqlarining tuzilmasi. Ishlab chiqarish infra tuzilmasi. Korxonalarning moliyaviy ahvoli. Inovatsion va investitsion muhit. Demografik vaziyat, aholi bandligi. Soliq ma'murchiligi.

3.3.2.-rasm. Hududning soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar¹.

Shuningdek soliqqa jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator omillarning ham hisobga olish kerak: iqtisodiyotda to'lovsizliklar, soliq boqimandaligi, ish haqi

¹ Bozorova L.A. Budjet daromadlari barkarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohitini oshirish yo'nalishlari. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№ 12. – B. 65.

bo'yicha karzdorlik. Albatta, asosiy soliq to'lovchilarining soliq bazasining o'zgarishiga, ularning moliyaviy ahvoli, hisob-kitoblar shakllariga ta'sirini tahlil etilishi lozim. Hudud soliq bazasini baholashda hududning mulkini daromadliligi va budjet samaradorligi, ishlab chiqarish va ijtimoiy tuzilma sifati hamda hudud tarmoqlarining texnologik yangilashdagi ehtiyoji, transport ta'minoti kabilarni hisobga olish lozim. Keltirilgan ko'rsatkichlar hududning iqtisodiy, moliyaviy va soliq salohiyatini hisoblash uchun axborot bazaning asosini tashkil etadi. Mazkur axborot bazasi hududning iqtisodiy o'sishi va shunga mos holda mahalliy budjetlarga soliq tushumlari hajmining o'sish imkoniyatlarini aniqlashga sharoit yaratdi. Bu mahalliy budjetlarni shakllantirish uchun muhim. Aks holda, hududlarning yuqori budjetdan oladigan moliyaviy yordamlari, subventsiyalar, dotatsiyalarga ehtiyoji ko'payadi.

Soliq salohiyati – bu davlat budjetiga o'tkazilishi belgilangan va qonunchilikda o'rnatilgan stavkalarda hisoblanadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarning imkon darajasida yig'ilishi mumkin bo'lgan hajmidir. Davlat budjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni soliq vositalari yordamida davlatning iqtisodiy munosabatlarini tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Soliq stavkalarini tartibga solish, soliq imtiyozlari berish va boshqa shu kabi vositalar iqtisodiyotda tarkibiy siljishlar va investitsiyalash jarayoniga o'zining munosib ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki (3.3.1.-jadval), soliq turlari bo'yicha yig'uvchanlik koeffitsenti 2008 yilga nisbatan 2012 yilda 10,8 foizli punktga, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 37,3 foizli punktga pasaygan. Mahalliy soliqlar va aktsiz solig'i bo'yicha yig'uvchanlik koeffitsenti aktsiz solig'i bo'yicha foizda 5,9 punktga, mol-mulk solig'i buyicha 18,9 punktga o'sgan. Tahlillarni davom ettirib, har bir soliq turi bo'yicha soliq salohiyatini hisoblagan holda, uni haqiqiy tushumlar bilan solishtirma tahlil qilamiz. Soliq salohiyatiga nisbatan haqiqiy soliq tushumlari ijobiy o'zgarishda bo'lgan.

3.3.1.-jadval

O'zbekiston Respublikasida soliq salohiyati (ss) va haqiqiy tushumi o'rtasidagi solishtirma tahlili¹

T/r	Ko'rsatkichlar	2009 yil			2010 yil			2011yil			2012 yil			2013yil
		ss	ijro	%	ss	ijro	%	ss	ijro	%	ss	ijro	%	Ss
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	432,9	544,8	125,8	544,8	644,5	118,3	644,5	861,6	133,7	861,6	1001,1	116,1	1001,1
2.	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq	175,2	229,0	130,7	229,0	390,9	170,7	390,9	561,4	143,6	561,4	645,9	115,0	645,9
3.	Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq	1108,8	1311,8	118,3	1311,8	1594,6	121,6	1594,6	1919,1	120,3	1919,1	2301,8	119,9	2301,8
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	87,2	111,8	128,2	111,8	168,0	150,1	168,0	225,0	133,9	225,0	317,3	141,0	317,3
5.	Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga belgilab qo'yilgan soliq	287,0	336,7	117,3	336,7	383,4	113,9	383,4	449,6	117,3	449,6	559,9	124,5	559,9
6.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	2505,5	3085,0	123,1	3085,0	3900,2	126,4	3900,2	4761,4	122,1	4761,4	5966,6	125,3	5966,6
7.	Qo'shilgan qiymat solig'i	1123,3	1794,5	159,8	1794,5	2219,4	123,7	2219,4	2541,8	114,5	2541,8	3175,9	124,9	3175,9
8.	Aktsiz soligi	317,6	334,2	105,2	334,2	430,3	128,8	430,3	516,3	120,0	516,3	759,7	147,1	759,7
9.	Bojxona boji	177,0	224,7	126,9	224,7	308,6	137,3	308,6	405,4	131,4	405,4	532,4	131,3	532,4
10.	Transport vositalari uchun benzin, dizel, gaz yoqilg'i iste'moli uchun soliq	234,1	319,1	142,4	319,1	432,9	135,7	432,9	571,5	132,0	571,5	736,1	132,0	736,1
11.	Mol-mulk solig'i	186,0	232,5	124,5	232,5	322,7	139,4	322,7	437,2	135,5	437,2	486,3	111,2	486,3
12.	Er solig'i	880,6	1168,4	132,7	1168,4	1284,5	109,9	1284,5	1555,0	121,1	1555,0	2016,3	129,6	2016,3
13.	Er osti boyliklaridan foydalanilganlik uchun soliq	35,2	42,6	121,0	42,6	55,3	129,8	55,3	62,4	112,8	62,4	73,9	118,4	73,9
	Jami	7764,9	10040,4	129,3	10040,4	12500,7	124,5	12500,7	15347,9	122,8	15347,9	19161,4	124,8	19161,4

¹ www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

Jumladan, 2009 yilda mamlakat soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farq 129,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farq 124,8 foiz bo'lgan. Mazkur holat ya'ni, soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasida farq qisqarilishi ijobiy hisoblanadi. Bu izchillik bilan amalga oshirilayotgan budjet-soliq siyosatining ijobiy natijasidir. Aytish mumkinki, soliq salohiyatidan mahalliy budjet daromadlarini rejalashtirishda foydalanish maqsadida o'rganish shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyatiga xududiy iqtisodiyot, xususan xududning moliyaviy holati bog'liq.

Shunday qilib, budjet daromadlarini rejalashtirish aniq vaqt mobaynida iqtisodiy jihatdan asoslangan va soliqli daromadlarning maksimal imkoniyatlarini aniqlaydigan prognozashtirish hisoblanadi. Soliqlarni prognozashtirish usuli qo'llanilganda soliq salohiyati va haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni baholash budjet loyihasidagi soliq tushumlari hajmi aniqlanadi.

XULOSA

«Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy budjetlarni samarali boshqarish masalalari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi yakunida quyidagi xulosa va takliflar tayyorlandi.

Xulosalar:

1. Davlat budjetining vazifalarni amalga oshirishda mahalliy budjetlar tizimini samarali boshqarish va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish muhim rol o'ynaydi.
2. O'zbekiston Respublikasida budjet tizimi islohotlarning asosiy maqsadi – g'aznachilik mexanizmini rivojlantirish, mahalliy budjetlarni samarali boshqarish, budjet tizimi tarkibidagi respublika va mahalliy budjet daromadlarini oshirish, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish hamda turli darajadagi mahalliy budjetlardan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarni amalga oshirish bilan oilalarning turmush farovonligini oshirishdan iborat.
3. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida mahalliy hokimiyat organlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan boshqarishdagi rolini oshirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Birinchidan, markaziy boshqaruv organlari ma'lum darajada ortiqcha vazifalardan xoli bo'ladi, ikkinchidan, mahalliy hokimiyat organlarini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi mas'uliyati oshadi, uchinchidan, ushbu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning tez echilishga olib keladi.
4. Hududiy iqtisodiyot rivojlanishida moliya mexanizmining o'рни alohida hisoblanadi. Ushbu mexanizmning eng samarali vositasi hisoblangan soliqlardan iqtisodiyotni tartibga solishda foydalanish, uning rivojlanishi bilan birga, mahalliy budjetlarni muntazam va etarli miqdorda daromadlar bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi.

5. Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatimizni budjet-soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omildir. Har bir soliq turi bo'yicha soliq salohiyatini hisoblagan holda, uni haqiqiy tushumlar bilan solishtirma tahlil qilinadi. Soliq salohiyatiga nisbatan haqiqiy soliq tushumlari ijobiy o'zgarishda bo'lishi kerak. Soliq salohiyatidan mahalliy budjet daromadlarini rejalashtirishda foydalanish maqsadida o'rganish shuni ko'rsatadiki, 2009 yilda mamlakat soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farq 129,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farq 124,8 foiz bo'lgan. Mazkur holat- soliq salohiyati bilan haqiqiy soliq tushumlari o'rtasida farq qisqarishi ijobiy hisoblanadi. Bu respublikamizda izchillik bilan davlat amalga oshirayotgan budjet-soliq siyosatining ijobiy natijasidir.

Takliflar:

1. Mahalliy boshqaruv organlari tomonidan «Budjet tashkilotlarining rivojlantirish jamg'armalari»ning tushumlarini ko'paytirish yuzasidan budjet tashkilotining binolari va asosiy vositalarini inventarizatsiyadan o'tkazish orqali daromad olinishi mumkin bo'lgan manbalarni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.
2. Budjet tashkilotlari va jismoniy shaxslar o'rtasida ijara munosabatlari tartibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.
3. Bizning fikrimizcha, hududlarda mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi quyidagi hisobotlarni amaliyotga taqdim etish mumkin. Faoliyatning asosiy natijalari to'g'risidagi taklif etilgan hisobotning asosiy ko'rsatkichlari rasmda berilgan.
4. Budjet daromadlarida solikli tushumlar reja va ijro ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq ijobiy yoki salbiy holat yuz berayotganini mamlakatda etarlicha asoslanmagan holda reja tuzish natijasi sifatida izohlash mumkin. Budjet daromadlari prognozini tuzishda daromadlarga ta'sir qiluvchi qator omillar: soliq stavkasi, soliq yig'uvchanligi, soliq bazasi,

soliq imtiyozlari, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, soliq salohiyati kabilarni e'tiborga olib, hisob-kitob qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2013. -40b. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2007 yil. 25 dekabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni. 1993 yil. 2 sentyabr. (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi «Davlat budjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 594-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdaagi «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdaagi «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi 2099-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdaagi 414-son «Budget tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi Qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 2007-son buyrug‘i.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risida Nizomini tasdiqlash haqida”gi 2007 yil 20 martdagi 53-son Qarori.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. -T.: “O‘zbekiston”. 2010. -80 b.
12. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. // Norma maslahatchi, 2010 yil. 16 noyabr.
13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O‘zbekiston”. 2011. - 48 b.
14. Karimov I. A. [“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi.](#) T.: “O‘zbekiston”. 2012. -36 b.
15. Karimov I.A. “Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta‘minlash, xayotimizning yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir.\\ Xalq so‘zi. 2012 yil. 8 dekabr.
16. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. \\ Xalq so‘zi. 2013 yil. 19 yanvar.
17. Karimov I. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi \ 2013 yil. 8 dekabr.

[Prezident matbuot xizmati](#)

18. Karimov I. "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. \ Xalq so'zi. 2014 yil. 18 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

19. Акперов И. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: "КНОРУС". 2010. - 640 с.
20. Бюджетный кодекс Российской Федерации. 2008. 1 январ.
21. Кадомцева С.В. Государственные финансы. Учебное пособие.- М.: «ИНФРА -М». 2010. -352 с.
22. Malikov T., Jalilov P., Budjet-soliq siyosati. Monografiya. T.: Akademnashr. 2011. -472 b.
23. Malikov T., Vahobov D.R., Moliya: chizmalarda. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2010. - 660 b.
24. Mexmonov. S.U. Budjet xisobi. O'quv qo'llanma. - T.: "Fan va texnologiya". 2012. - 352 s.
25. Sirojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi: II. Darslik. – T.: «infoCOM.UZ» nashriyoti. 2010. - 500 b.
26. Sirojiddinova Z.X. Budjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma. –T.: «infoCOM.UZ» nashriyoti. 2010. - 156 b.
27. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации. Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К". 2012. - 336 с

28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua. – T.: “Iqtisodiyot”. 2010. – 340 b.
29. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi «Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish» mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha O‘quv qo‘llanma. – T.: —O‘qituvchi. NMIU. - 2013. —366 b.
30. Eshnazarov T.Sh. O‘zbekiston Respublikasida g‘aznachilik tizimi asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. -304 b.
31. Qosimova G.A., Shoakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2012. 260 b.
32. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”. 2013. -487 b.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar.

33. Asqarov N. Sohalarni rivojlantirishda maqsadli boshqarishning metodologik asoslari. \ Iqtisod va moliya. – Toshkent. 2013. №4. – B.123-127.
34. Bozorova L.A. Budjet daromadlari barkarorligini ta’minlashda hududlar soliq salohitini oshirish yo‘nalishlari. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. -№ 12. – B. 65.
35. Davlatov D. Budjet tizimini takomillashtirishda mahalliy soliqlarning o‘rni va ahamiyati. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotnig hududiy muvozanatligini ta’minlash masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent. 2013. –B.232-234.

36. Ковалевский А., Сучкова А. Программно-целевое бюджетирование как метод повышения результативности бюджетных расходов // Сборник статей «Развитие бюджетного федерализма: опыт и российская практика» / Общая ред. Мигары Де Сильвы. – М.: Издательство «Весь мир», 2013. – С 35.
37. Омонова Ф., Зикриллаева Н. Парламентская форма контроля государственного бюджета страны. // Иқтисод ва молия. – Тошкент. 2013. №3. – Б.37-42.
38. Сардаров Р., Буланов В. Развитие систем здравоохранения в мировой экономике. // Международная экономика. – Москва. 2013. № 26. – С.8-14
39. Н Шамсиев Н. Особенности современной бюджетной системы Республики Узбекистан. // Биржа Эксперт. -Тошкент. 2012. №5. – Б.53-55.
40. Haydarov M. Budget tashkilotlarida ichki auditni tashkil qilishda risklarni baholash mohiyati. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№9. – Б. 60-65.
41. Eshnazarov T. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. // Iktisod va moliya. -Toshkent. 2012. -№12. – Б.51-56.
42. Temirov M. Davlat moliyasi: yangi texnologiyalar va ularni moliyalashtirish. // Iqtisod va moliya. -Toshkent. 2013. №6. – Б.19-22.
43. Sharopova M. Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda budjetdan moliyalashtirish tamoyillarining ahamiyati. // Moliya. -Toshkent. 2013. №1. – Б. 32-35.
44. Umarov Z. O‘zbekistonda moliya tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari. // Bank axborotnomasi. -T.2014. 12 mart. 11 (930)-son.
45. O‘rozov U. O‘zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi: mohiyati, ahamiyati va afzalliklari. // Moliya. -Toshkent. 2014. №1. –Б.24-29.

- 46.Qosimova G., Elmurodov U. G'aznachilik sharoitida budget tashkilotlaridagi risklarni boshqarish. \ Birja Ekspert. -Toshkent. 2012. № 6. –B. 3-6.
- 47.Qosimova G.A. G'aznachilik tizimida davlat xaridlarini samarali boshqarish. \ Biznes-Ekspert. 2013. 10-11son. 6-8b.
- 48.Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarishda Byudjet Kodeksining ahamiyati. \ Moliya. . -Toshkent. 2014. №1. –B.19-23.
- 49.Qosimova G.A. G'aznachilik sharoitida budget-soliq va pul-kredit siyosatining muhim tadbirlari. O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. -Toshkent. 2012. –B.390-393.
- 50.Qosimova G., Maxmudov J. G'aznachilik tizimi faoliyatini tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tizimidan foydalanish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, bank, soliq, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori, investitsiya, buxgalteriya hisobi va audit tizimlarini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. - Toshkent. 2012. –B.43-44.
- 51.Qosimova G.A.,Toshmuxamedova D. Hududlar moliyaviy resurslarini moliyaviy boshqarish masalalari. Raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2013. 14 dekabr.283-284 b.
- 52.Qosimova G.A. Mintaqalarda mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirish masalalari. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotnig hududiy muvozanatligini ta'minlash masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2013. 220-221 b.
- 53.Qosimova G.A. Davlat budjetini boshqarish islohotlarida g'aznachilikning o'rni. Agrar sohani boshqarishning moliya-kredit

- mexanizmini takomillashtirish. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 26 aprel.148-150 b.
- 54.Qosimova G.A., Yuldashev D.U. Inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasining ahamiyati. Milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va bank-moliya tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 25 aprel.232-233 b.
- 55.Qosimova G.A., Dadaxonov D.G'. Ijtimoiy himoyalash tizimida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik roli. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini oshirish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 22 fevral. -B.10-12.
- 56.Qiyosov Sh. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish.\ Moliya. . - Toshkent. 2014. №1. –B.36-39.
- 57.Qo'chqorov T. O'zbekistonda milliy g'aznachilikning avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish istiqbollari. \ Moliya. -Toshkent. 2011. № 2. –B.137-141.
- 58.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari. Statistik to'plam – T.: «O'zbekiston». 2011. – 140 b.

IV. Internet-sayt ma'lumotlari

1. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
2. www.treasury.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi.
3. www.gov.uz O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali.
4. www.mf.uz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
5. <http://www.soliq.uz/uz> O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Qo'mitasi.

